

HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK.

Egamberganov Jaloliddin Uktambay o'g'li

Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti yurisprudensiya ta'lif yo`nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqqa rioya qilmaslik ayrim shaxslarning qabul qilingan qonunlardan xabardor emasligi yoki sodir etilgan xatti-harakatini huquqqa zid ekanligini bilmasligi, ya'ni huquqiy jihatdan savodsizligi yoxud huquqni mensimasligi natijasida yuzaga keladigan yuridik javobgarlik haqida so'z boradi.

Kalit so`zlar: huquq, huquqbuzarlik, subyekt, obyekt, subyektiv tomon, obyektiv tomon, yuridik javobgarlik, jinoyat.

Huquq haqida gap ketganida, avvalambor huquq nima degan savolga qisqacha tasnif berib o'tsam. Demak, huquq nima ekanligiga ta'rif beradigan bo'lsak, huquq bu davlat tomonidan o'matilgan bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy normalar tuzimi deb bilamiz. Huquq va uning turlari, huquq buzilganda yoki huquqbuzarlik sodir etilgandan so'ng kelib chiqadigan javobgarlik qoidalarini birmabir o'rganib, uni chuqurroq mazmun-mohiyatini bilib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquq davlat tomonidan o'rnatilgandan so'ng, u ushbu davlat va uning fuqarolari uchun majburiy sanaladi. Bundan tashqari, har bir sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qonun bilan tasdiqlangan manbalarga ko'ra, javobgarlik va jazolari belgilab qo'yilgan. O'rnatilgan huquqiy qoidalarni fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan bajarmaslik yoki ularga rioya qilmaslik yoxud ularning talablarini buzishga yo'naltirilgan faoliyat va harakat (harakatsizlik). Subyektlarning huquqqa zid harakatlarni sodir etishi ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasidagi salbiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Chunki, huquqqa rioya qilmaslik ayrim shaxslarning qabul qilingan qonunlardan xabardor emasligi yoki sodir etilgan xatti-harakatini huquqqa zid ekanligini bilmasligi, ya'ni huquqiy jihatdan savodsizligi yoxud huquqni mensimasligi natijasida yuzaga keladi. Chunonchi, ayrim fuqarolar mavjud qonunlarning qabul qilinganligi va ularni buzish mumkin emasligini bilsa-da, unga rioya qilmaydilar.

Huquqbuzarlik yuridik fakt bo'lib hisoblanadi, u o'z navbatida, qo'riqlovchi xarakterga ega bo'lgan huquqiy munosabatlarni ham yuzaga keltiradi. Huquqbuzarlikning tarkibi muayyan huquq normasini sharhlash, uning mazmunini ochish hamda dunyoqarash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Huquqbuzarlik tarkibi to'rtta elementni o'z ichiga oladi:

- | | |
|-------------------------------------|--------------------------------------|
| 1.Huquqbuzarlikning obyekti | 2.Huquqbuzarlikning subyekti |
| 3.Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni | 4.Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni |

Huquqbazarlikning obyekti deganda huquq bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik natijasida Zarar yetkaziladigan ijtimoiy munosabatlarga tushuniladi. Obyekt huquqiy normada aniq ifodalangan bo'ladi. Huquqbazarlik sodir etgan shaxs nafaqat jamiyatda qaror topgan huquqiy tartibotga, balki fuqarolarning huquqiy ongiga hamda ularning subyektiv huquqlariga zarar yetkazadi.

Huquqbazarlikning subyekti huquqbazarlikni sodir qilgan o'z qilmish- larining oqibati uchun yuridik javobgarlik o'tay oladigan (delikt layoqatiga ega) yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Subyektlarning xususiyatlari huquqbazarlikning turiga bog'liq bo'ladi.

Huquqbazarlikning obyektiv tomoni huquq buzilishining tashqi tavsifi bo'lib, bunda shaxsning harakati va harakatsizligi oqibatida huquqning buzilishi hamda uning ijtimoiy xavfliligi namoyon bo'ladi. Mazkur jihatga qarab, huquqbazarlik to'g'risida, uning qanday sodir bo'lganligi va qay darajada zarar keltirganligi haqida fikr yuritish mumkin.

Huquqbazarlikning subyektiv tomoni shaxsning (jismoniy va yuridik) huquqqa qarshi qaratilgan harakati yoki harakatsizligi oqibatiga, ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy zararga nisbatan ruhiy-ongli munosabatidir.

Huquqbazarlik uchun jazoning muqarrarligi, har qanday huquqbazarlik ma'lum bir javobgarlik bilan bo'g'langanligi tabiiy hol. Lekin ijtimoiy javobgarlikning barcha shakllari ham doimo huquqiy javobgarlik bilan aynan bir xil emas. Huquqiy normalarga asoslangan va davlat majburlov normalari bilan bog'liq bo'lgan javobgarlik yuridik javobgarlikni tashkil qiladi va aynan shu javobgarlikni o'rganish huquqshunoslik fanining vazifalaridan biridir. Yuridik javobgarlikka asos bo'lib huquqbazarlik, ya'ni huquqiy normalarni buzish hisoblanadi. Huquqbazarlik turlari yuridik javobgarlik turlariga mutanosibdir:

- ◆ fuqarolik huquqbazarligi – fuqaroviy (moddiy) huquqiy javobgarlikni;
- ◆ ma'muriy huquqbazarlik – ma'muriy javobgarlikni;
- ◆ intizomiy huquqbazarlik – intizomiy javobgarlikni;
- ◆ jinoiy huquqbazarlik – jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Yuridik javobgarlik sud tartibida, ma'muriy tartibda yoki intizomiy tartibda amalga oshiriladi. Yuridik javobgarlikning ikki turi farqlanadi:

1) Jarima yoki jazo; 2) Huquqni tiklovchi javobgarlik.

Jarima yoki jazo turi o'z navbatida quyidagilardan iborat: Vakolatli organ qonun asosida huquqbuzarga nisbatan yuridik javobgarlik choralarini qo'llaydi. Bu choralar ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, tartibga solish va muhofaza qilishga qaratilgandir. Yuridik javobgarlik quyidagi tamoyillarga asoslanadi: qonuniylik; adolatparvarlik; jazoning muqarrarligi; maqsadga muvofiqlik; bag'rikenglik; ayb

uchun javobgarlik; huquqbuzarning bitta huquqbazarlik uchun bir necha tomonlama javobgarlikka tortilishiga yo‘l qo‘ymasligi.

Qariyb har doim inson oldida huquqqa mos yoki huquqqa zid tarzda harakat qilishni tanlash imkonи bo‘ladi. Agar u ikkinchi yo‘lni tanlasa, bu birinchi navbatda uning o‘ziga, qolaversa, jamiyatga zarar yetkazadi. Qonunlar davr taqozosi, zamona so‘rovi tufayli yuzaga keladi, ehtiyoj va zarurat zamirida yaraladi. Ehtiyoj va zarurat esa sharoit yetilsagina hosil bo‘ladi. Ana shu sharoit (zamirida) jinoyatga yarasha jazo tayinlash amaliyoti ham takomillashib borishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI .Darslik. X.T. Odilqoriyev - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y.
2. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari: 8-sinf Uchun darsliik.Toshkent-2019
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Huquq>